

ANNOTATSIYA

Bu maqola bolalar psixologiyasi shakllanishida ota-ona, do'st va qarindoshlarning o'rni haqida ma'lumot beradi. Maqolada bolalar psixologiyasining asosiy nazariyalari va tadqiqotlar asosida faktlar bilan yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: bola psixologiyasi, ruhiy rivojlanish, oilaviy muhit, qarindoshlar roli, tarbiyaviy omillar, xulq-atvor shakllanishi.

KIRISH

Bugungi kunda bolalar psixologiyasi masalasi jamiyatimizda dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Bola ruhiyati, uning xarakteri va qarindoshlarning o'rni beqiyosdir. Ularning munosabati, qo'llab-quvvatlashi va beradigan tarbiyasi bolaning kelajakdagi shaxs sifatida kamol topishiga asos yaratadi.

Bola psixologiyasi-uning ruhiy holati, xarakteri, dunyoqarashi, va jamiyatdagi o'rnini belgilab beradigan eng muhim omillardan biridir. Bu jarayon tug'ilgan kundan boshlab bosqichma-bosqich shakllanadi va unda bir nechta ijtimoiy guruhlar-avvalo, otaona, do'stlar va qarindoshlar muhim rol o'ynaydi.

Bola psixologiyasi fani tarixi

Bolalar psixologiyasi — bola tug'ilgan ilk lahzadan boshlab uning psixik jarayonlari, xulqi, nutqi, hissiyoti, motivatsiyasi va ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishini o'rganadigan ilmiy sohadir.

Ushbu fan bosqichma-bosqich rivojlanib, turli tarixiy davrlarda o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'lgan. Bu soha XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mustaqil fan sifatida shakllangan. Dastlabki fikrlar faylasuflarning kuzatuvlari orqali shakllangan.

Aflotun — bolalar tug'ma qobiliyat bilan keladi, tarbiya orqali rivojlanadi.

Aristotel — bilish jarayonlari sezgi orqali boshlanishini ta'kidlagan.

U davrlarda ilmiy metod yetishmagani uchun bu fikrlar nazariy farazlar bo'lgan.

Jan-Jak Russo (1712–1778) — bolalar tabiatdan kelib chiqadigan tabiiy rivojga ega, ularni majburlash emas, qo'llab-quvvatlash kerak.

Uning "Emil" asari bolalar rivojlanishiga ilmiy yondashuvning boshlanishi bo'ldi.

XIX asr psixologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirdi.

Vilgelm Vundt (1879) — dunyodagi birinchi psixologiya laboratoriyasini ochdi.

Bolalar psixologiyasida u psixik jarayonlarni eksperiment orqali o'rganish g'oyasini berdi. G. S. Holl — bolalar psixologiyasining "otasi" hisoblanadi. U bolalar rivoji bo'yicha birinchi keng ko'lamli tadqiqotlarni o'tkazgan.

Albert Bandura (1925–2021) zamonaviy psixologiyada eng ta'sirli olimlardan biridir. Uning nazariyasi bolalar psixologiyasi, tarbiya,

ta'lim, shaxs rivoji va hatto psixoterapiya sohalarida asosiy manba sifatida qo'llaniladi.

Bandura model orqali o'rganishning 4 bosqichini aniqlab bergan:

1) E'tibor (Attention)

Bola modelning xatti-harakatiga e'tibor qaratishi kerak.

E'tibor quyidagilarga bog'liq:

modelning obro'si, kuchi, mavqei, jinsi, yoshi;

bolaning qiziqishi va ehtiyojlari;

vaziyatning qanchalik jozibadorligi.

Masalan: bola eng ko'p ota-onasi yoki o'qituvchisini kuzatadi, chunki ularni ishonchli model deb biladi.

2) Eslab qolish (Retention)

Bola ko'rgan xatti-harakatni xotirasida saqlab qoladi. Bu jarayon: til orqali,

tasavvur va tasvirlar orqali amalga oshadi.

Masalan: bola ko'rgan harakatni keyin maktabda, bog'chada yoki uyda takrorlay olishi.3) Amalga oshirish (Reproduction)

Bola ko'rgan xatti-harakatni jismoniy va psixologik imkoniyatiga qarab amalda takrorlaydi.

Masalan: bolalar televizorda ko'rgan jang harakatlarini uyda takrorlaydi.

4) Motivatsiya (Motivation)

Bola model xatti-harakatini takrorlash uchun rag'bat his qilishi kerak.

Rag'bat turlari:

Bevosita rag'bat — maqtoov, sovrin, e'tibor.

Bilvosita rag'bat — boshqani maqtashni ko'rib, "mena ham shunday qilsam bo'ladi" degan fikr paydo bo'ladi. O'z-o'zini rag'batlantirish — o'zini baholash, o'ziga maqsad qo'yish.

Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqib boshladi. U pedagogika psixologiyasi, pedagogika, oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Yusuf Xos Xojib o'zining "Qutadgu bilik" asarida eng komil, jamiyatning talablariga javob beradigan insonni tarbiyalash, A. Jomiy asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasbhunar o'rgatish, yoshlarda yaxshi xislatlar, fazilatlar va odoblikni shakllantirish haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Bolalar psixologiyasida ota-onaning o'rnini

Avvalo, bola tarbiyasida ota-onaning ta'siri eng kuchli va bevositadir. Bolaning ilk yillarida ular bilan qanday munosabatda bo'linishi, mehr, e'tibor va tushunish darajasi uning keyingi xarakteri, o'ziga bo'lgan ishonchi va ruhiy barqarorligiga asos bo'ladi. Ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanib o'sgan bola ijobiy fikrlaydigan, muammolarni tinch yo'l bilan hal qiladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Bola uchun ota-onasi dunyoni bilishning asosiy manbaidir. Ular ko'rgan narsalarni, his qilgan narsalarni bola ham shunday qabul qiladi.

Bola dunyoni ota-ona kòzi bilan kòradi. Ota-onasi kimni yoqtirsa, u ham yaxshi kòradi. Lekin yomon kòrsa, u ham nafratlanadi. Bu holat bolaning 10-12yoshigacha davom etadi. Shu yoshdan keyin o'zi mustaqil xulosa chiqarishga harakat qiladi va xulosalari bòyicha kimni yoqtirish-yoqtirmaslikni ang'laydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati-ota-onasining ishlari kòzgusi hisoblanadi.

Bola tu'gilganidan uning psixologiyasi ota-onasidan namuna olgan holda rivojlanadi. Ular baqirib gapirsa, u ham baqirib gapiradi.

Har bir bola dunyoga oppoq sahifa bo'lib keladi. Bu sahifaga esa eng birinchi bo'lib ota-ona, so'ng do'stlari va yaqin qarindoshlari o'z izini qoldiradi. Bola qanday muhitda ulg'aysa, kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishi ham ko'p jihatdan shunga bog'liq. Shu bois, bola psixologiyasi shakllanishida oilaning va ijtimoiy muhitning o'rni nihoyatda muhimdir.

Ota-ona birlashib, bolaga o'z mehrini, e'tiborini beradi. Qanday gapirishni, o'tirishni, boshqalar bilan gapirishni hamma hammasini ota-onasidan o'rganadi.

Bola psixologiyasida do'stlarining ta'siri

Do'stlar (yoki tengdoshlar) bolalarning psixologik rivojlanishida oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy omildir. 6–18 yosh oralig'ida ularning roli keskin kuchayadi.

Bola bog'chaga borishni boshlaganida gapirishi, o'zini tutishi, kiyinishi, ovqatlanishi va sov'ga tanlashi va qabul qilish jarayonlari almashadi.

Uyida erka va shòx bola boğchaga borib bosiladi. Uyida qoshiq ushlay olmaydigan bola boğchada òzi ovqatlanadi. Ba'zi sabzavot, mevalarni yeya olmaydigan, yoqtirmagan bola tengdoshlariga qarab yeyishni boshlaydi. Gapirishni bilmaydigan bolaning nutqi ravon bòlishi boshlanadi.

Boğchada tillar òrganishni, mashqlar qilishni, musobaqalarda qatnashishni boshlaydi.

Olimlar nazariyasi:

Lev Vygotskiy: Bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit orqali kechadi. Tengdoshlar bilan hamkorlik "YaQZR"ni (Yaqin rivojlanish zonasini) faollashtiradi.

Bandura (Ijtimoiy o'rganish nazariyasi): Bola boshqalarni, ayniqsa do'stlarini kuzatib o'rganadi.

Bog'chada bola ko'proq kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganadi. Yaxshi yoki yomon xulq do'stlar orqali modellashtiriladi.

Do'stlar bolaning o'zini qanday qabul qilishi, o'z qadrini his etishi va kimligini shakllantirishiga kuchli ta'sir qiladi. Ijtimoiy do'stlik bola o'ziga ishonch, ijtimoiy dadillik, faol ishtirokni kuchaytiradi. Salbiy yoki rad etuvchi do'stlar bolaning past o'z-o'zini baholashi va ijtimoiy chekinishiga sabab bo'ladi.

Yaxshi o'qigan tengdoshlar motivatsiya beradi, musobaqalashish o'quv jarayonini faollashtiradi, ilmiy qiziqishlar rivojlanadi.

Bog'chada bola o'z tengdoshlari bilan muloqotni amalda o'rganadi. Òyin orqali ijtimoiylashish, navbat kutish, òrtoqlar bilan bo'lishish, konfliktni hal qilish kabi asosiy ko'nikmalar shakllanadi. Do'stlar orqali bola o'zini jamoaning bir qismi sifatida his qiladi va ijtimoiy moslashuv jarayoni tezlashadi.

Vygotskiyga ko'ra, bola rivojlanishining asosiy manbai ijtimoiy muhitdir. Tengdoshlar bilan hamkorlik bolaning "yaqin rivojlanish zonasini"ni kengaytiradi, ya'ni bola tengdoshlar yordamida mustaqil bajara olmagan vazifalarni o'rganadi.

Bola chizivni, gapirishni, kiyinishni va boshqa shunga òxshash faoliyatlarni qilishida xato qilsa ham urishmaslik, jerkimaslik kerak, Kòngli qolmasligi uchun. Uni har bir ishini zavq bilan qarshilab, mukofotlash zarur. Shundagina bola bu ishlarni yanada kòproq qilishni xoxlaydi.

Bolalarga bog'cha yoshida bòlganida baqirish mumkin emas. Sababi ranjishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bola psixologiyasi rivojlanishida ota-ona va atrof-muhit ta'siri katta ahamiyatga ega.

Bola psixologiyasi shakllanishi — murakkab, ammo juda muhim jarayon. Unda oila a'zolari, do'stlar va qarindoshlar har biri alohida ahamiyatga ega. Mehr, e'tibor, sog'lom muhit va to'g'ri yo'l-yo'riq bola kelajakda mustaqil, o'ziga ishongan va ijtimoiy faol shaxs bo'lib kamol topishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1996.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent:
3. Munn D. Bolalar psixologiyasi. – London, 2001.
4. Davletshin M.G. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2008